



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

- (Giyās ad-dīn Xāndamir. *Tārix-e habib us-siyar. Enteshārāt-e “Xeyyām. Tehrān-1353. J 4. S-325.)*
 17. آتشکده آذر. آذر بیگدلی. با مقدمه و فهرست و تعلیقات سید جعفر شهیدی. انتشارات “نشر کتاب” تهران-1337 ه.ش. ص. 133. (*Āzar Bigdili. Ātaškade āzar. Bā moqaddame va fehrest va ta’liqāt Seyyid Ja’far Šehidi. Enteshārāt-e “Ketāb” Tehrān-1337. S-133.)*
 18. مهدی بیانی. احوال و آثار خوشنویسان. انتشارات علمی. تهران-1363. ج 1، ص 250-252. (*Mehdi Beyāni. Ahvāl va āsār-e xošnavisān. Enteshārāt-e “Elmi” Tehrān-1363. J 1. S-250-252.)*
 19. بدایع الوقایع. زین الدین محمد و اصفی. تصحیح الکسندر بلدروف. جلد اول. انتشارات بنیاد فرهنگ ایران. تهران-1350. (*Zeyn ad-din Vāsefi. Badāyi’ al-vaqāyi’ bā tas’hih-e A.Bālderev. J 1. Enteshārāt-e “Bonyād-e farhang-e Irān. Tehrān-1350. S-438.)*
 20. تحفه سامی. سام میرزا سفوی. با تصحیح و مقابله وحید دستگردی. ضمیمه سال شانزدهم ارمان. مطبعة ارمان. تهران. 1318. (*Sām Mirzā Safavi. Tohfe-ye Sāmi. Bā tas’hih-e va moqābele-ye Vahid Dastgardi. Zamime-ye sāl-e šānzdahom-e armoqān. Matba’a-ye Armoqān. Tehrān-1318. S-108.)*
 21. دانشنامه ادب پارسی، به سرپرستی حسن انوشه، چاپ اول، سازمان چاپ و انتشارات، تهران، 1376، ج2، ص 822. (*Dānešnāme-ye adab-e pārsi be sarparasti-ye Hasan Anuš. Ćāp-e avval. Sāzmān-e Ćāp va Enteshārāt. Tehrān-1376. J 2. S-822.)*
 22. کتاب شناسی توصیفی منشآت دوره تیموری و بررسی نقض آن ها در پژوهش های تاریخی آن دوره. علی منوچهری. پایان نامه جهت اخذ درجه کارشناسی ارشد تاریخ. دانشگاه تهران-1390. ص 11. (*Ali Manoĉehri. Ketābšenāsi-ye tovsifi-ye monŠāt-e doure-ye Timuri va barrasi naqz-e ānhā dar pajuhešhā-ye tārixī-ye ān doure. Pāyānnāme. Dānešgāh-e Tehrān-1390. S11.)*

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TABDILLARI TAHLILI

Abdulgayrov Manzar Xusanovich

*Filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU,
manzarabdulgayrov64@gmail.com
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/BBDK7747*

Annotatsiya. Maqola Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tabdillari tahliliga bag‘ishlangan. Unda doston matni asliyati va tabdillarining nashr etilishi, asar tabdilidagi matniy farq va tafovutlar, matn tarixi, matn tahriri, senzura, nasriy bayonlash usuli muammolari kabi masalalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: doston, matn tarixi, tabdil, nasriy ifoda, bayon, tahlil.

ANALYSIS OF TRANSFORMATIONS OF THE EPIC “FARHAD AND SHIRIN” BY ALISHER NAVOIY

Abstract. This article explores the epic Farhad and Shirin by Alisher Navoi, focusing on several critical aspects of the text. These include the originality of the epic, the publication of its various versions, textual discrepancies, and differences in the translations of the work. The study also addresses the history of the text, the processes of text editing and censorship, and the challenges associated with its method of prose narration.

Key words: epic, text history, transformation, prose expression, narrative, analysis.

Keyingi yillarda xalqimizning o‘tmish madaniy merosiga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Bu merosni zamon talablari darajasida o‘rganish har qachongidan ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, hech bir xalq o‘z milliy qadriyatlarini to‘liq o‘rganmay turib kelajak istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Shu jihatdan, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini eski o‘zbek yozuvidan joriy alifboga ko‘chirish saviya va sifatini tubdan ko‘tarish, matndagi iste‘moldan chiqqan turkiy so‘zlarni tushuntirish, chet so‘zlar va diniy atamalarga izohlar berish, tabdil

variantlarini yangicha tamoyil va usullarga tayanib amalga oshirish adabiy manbashunoslik va matnshunoslik sohasining dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

“Farhod va Shirin” dostonini tabdil qilishda, eng avvalo, matnshunoslikning bosh mezonini boʻlgan ikki tamoyilga asoslanilgan: 1) ommaviy ehtiyojlar; 2) ilmiy manfaatlarga qaratilgan ijtimoiy talab. Ayni shu maʼnoda, bu – tadqiqotchi yoki noshirdan mumtoz asarlarni ham shaklan ham mazmunan bugungi yosh avlod ruhoniyligi, talab-istaklari, saviyasiga mos ravishda hamda fan va texnika taraqqiyotining asosiy tamoyillari talablariga javob bera oladigan nashrlar tayyorlashni taqozo etadi. Zero, doston matni tarixiga uning adabiy tarixi va va matnning oʻzgarishiga olib kelgan barcha holatlar, aniqrogʻi, tasodifiy yoʻqotishlar va buzilishlar, senzura bosimi ostidagi oʻzgarishlarni hisobga olish va boshqalar kiradi.

Matn tarixini oʻrganayotganda, tadqiqotchi, albatta, matnning oʻzidan tashqarida uning oʻzgarishini barcha sabablarini anglashi kerak. Shuning uchun matn tarixi turli xil tarixiy va adabiy, tarixiy va kundalik masalalar va boshqalar bilan bogʻliq boʻladi. Masalan, matnshunos adabiy manbaning gʻoyaviy va estetik tomonlarini oʻrganishi shart, ammo bu ish matndagi baʼzi oʻzgarishlarni tushuntirib beradigan chegaralar doirasida amalga oshirilishi kerak. Shuning uchun matn tarixini oʻrganish mumtoz asarlarni tarixiy va adabiy oʻrganish oʻrnini bosa olmaydi va shu bilan birga barcha tarixiy va adabiy maʼlumotlarni deyarli toʻliq jalb qilishni talab qiladi. Darhaqiqat, matnni tabdil qilish va nashrga tayyorlashda ana shu matn tarixi talablariga rioya qilgan holda, birinchi navbatda, asarning qoʻlyozma nusxalari ustida ishlash, uni toʻgʻri oʻqish, ayniqsa, badiiy matn salohiyatini anglash tadqiqotchidan keng qamrovli bilim talab qiladi. Xususan, “matnshunos tadqiqotchi badiiy metod yoki ijodiy metod tamoyillarini toʻlaqonli anglamda matniy tadqiq etishi lozim” [Hayitmetov, 1968: 10].

Oʻzbek matnshunosligida adabiy manbalarni oʻrganish, joriy imloga tabdil (transliteratsiya) qilish va ularni nashr etish bilan bogʻliq katta salmoqqa ega ilmiy hamda amaliy tajriba toʻplangan. Xususan, “Farhod va Shirin” dostonini tabdil qilish ustida olib borilgan amaliy ishlar bir necha matnshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Navoiy asarlari matnini ilmiy oʻrganishda amalga oshirilgan dastlabki tadqiqot ishlari, asosan, 1938-yildan boshlangan edi [Shamsiyev, 1969: 1]. Ungacha faqat 1928-yili nashr etilgan “Oʻzbek adabiyoti namunalari” toʻplamidan boshqa koʻzga koʻrinarli biror-bir tadqiqot ishi mavjud emas edi [Shamsiyev, 1969: 2]. Dastlab Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini keng nishonlash munosabati bilan “Farhod va Shirin” dostonining qisqartirilgan varianti tabdili chop etildi [Navoiy, 1991: 2].

1938-yili Navoiy anjumanini oʻtkazishga tayyorgarlik koʻrish munosabati bilan shoir asarlari matnini nashr etish, yaʼni “Farhod va Shirin” dostonini nasriy ifoda, izoh va lugʻatlari bilan nashrga tayyorlash ishlari boshlandi. Navoiy yubileyini oʻtkazuvchi maxsus komissiya aʼzosi boʻlgan akademik Gʻafur Gʻulom tayyorgarlik ishlarida faol ishtirok etadi. U (1940-yil) “Farhod va Shirin” dostonini nasriy bayonlash usuli bilan lotin alifbosi asosidagi oʻzbek yozuvida nashrga tayyorlaydi [Shamsiyev, 1969: 2]. Bu haqda taniqli matnshunos olim Porso Shamsiyev shunday yozadi: “Bu tekstologik usul oʻsha davrda yangilik boʻlib, u qabul qilgan prinsip asosida shoirning boshqa asarlari nasriy bayoni ilova qilingan holda nashrga tayyorlana boshlandi” [Shamsiyev, 1969: 5]. Darhaqiqat, mumtoz matnni bunday oʻrganish usuli, yaʼni dostonning zamonaviy nasrga oʻgirilishi 20–30-yillar oʻzbek navoiyshunosligining oʻziga xos yangi bir yoʻsiniga aylandi [Hayitmetov, 1997: 53]. Shoirning bu faoliyatini ayrim adabiyotshunos tadqiqotchilar shunday baholaydi: “Gʻafur Gʻulomning “Farhod va

Shirin” dostonini nashrga tayyorlaganligi, shubhasiz, o‘zbek tekstologiyasi faniga qo‘shilgan munosib hissa bo‘lib, bu fakt G‘afur G‘ulomni birinchi o‘zbek tekstolog olimlari qatoriga qo‘yadi”[Ravshanov, 1973: 28]. Natijada, “Farhod va Shirin” dostoni tabdili 1940-yil G‘afur G‘ulom va Hamid Olimjon so‘z boshisi bilan nashr etiladi” [“Farhod va Shirin”, 1940: 33]. Kitob nashrining so‘z boshi qismida isloh qilingan lotin yozuvida G‘afur G‘ulom domlaning shunday qaydlari uchraydi: “Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini bosmaga tayyorlashda men asos qilib, Shomurod kotib yozgan va 1901-yilda Toshkentda “Partsov” matbaasida bosilgan nusxani oldim. Chunki bu nusxani yozgan kotib kamida yigirmalab qo‘lyozmalardan foydalangan. Bundan tashqari, qo‘limda yana quyidagi qo‘lyozmalar bor edi...” [“Farhod va Shirin”, 1940: 30]. Ko‘rinadiki adib dostonni o‘sha davr adabiy tiliga moslab asliyat bilan birga tabdil qilib bergan.

Shu tariqa sobiq Ittifoq davrida shoir qo‘lyozmalari ustida o‘tkazilgan poleografik va arxeografik tekshiruvlar natijasida matnlarni tabdil qilish ilk bora ilmiy asoslarga qurila boshladi.

Dostonni nasriy bayonlash usuli bilan o‘z davri adabiy tili va yozuviga tabdil qilgan birinchi kishi, aslida, XIX asrda yashab ijod qilgan adib Umar Boqiy sanaladi. Undan so‘ng yuqorida zikr etilganidek, 1940-yilda Navoiy tavalludiga besh yuz yil to‘lishi munosabati bilan akademik shoir bu dostonni nasrga o‘girib, asliyat matni bilan yonma-yon holda nashr ettiradi [Jalilov, 1960: 31]. Albatta, asliyat o‘z zamonasining adabiy tilida aks etgan bo‘ladi [Qayumov, 202: 17]. Tabdil yoki nasriy bayon esa, bugungi kunning til xususiyati holatini aks ettiradi. Asliyat bugungi kun kitobxoniga to‘la tushunarli emas. Shu bois har qanday mumtoz nazmning nasriy bayoni juda katta tahsinga loyiq, biroq u hech qachon asliyat bilan tenglasha olmaydi. Shuning uchun ham, keyinchalik to‘la amalga oshirilgan “Xamsa” dostonining nasriy bayonlari, garchi asliyat o‘rnini bosa olmasa-da, uni hozirgi kun kitobxoniga yaqinlashtiradi, ma’naviy mulkimizga aylantiradi. “Navoiy dostonlari, shu jumladan, “Farhod va Shirin” ham shunday murakkab uslub bilan yozilgan bo‘lib, bunday misralarni, bu yerdagi “*marz*”, “*kisvat*”, “*xoro*”, “*gurz*”, “*falakvor*”, “*davvor*” kabi so‘zlarni hozirgi zamon o‘quvchilari tushunib olishi nihoyatda qiyin. “G‘afur G‘ulom bu dostonning matnini hozirgi o‘zbek tilida nasrda bayon qilib berishga ahd qildi... “Farhod va Shirin” dostonining G‘.G‘ulom tomonidan zamonaviy nasrga o‘girilishi 30-yillar o‘zbek adabiy hayotidagi katta hodisalardan biri bo‘ldi. O‘sha yillari bu tajriba asosida Navoiyning “Xamsa”sidagi boshqa dostonlari ham nasrga aylantirildi va ulug‘ shoir asarlari go‘yo yangidan kashf etilganday, yangidan tavallud topganday bo‘ldi. Nasriy bayonchilik esa o‘zbek navoiyshunosligining yangi bir sohasi bo‘lib qoldi” [Hayitmetov, 1997: 52].

Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari ichida “Farhod va Shirin” dostoni alohida ahamiyat kasb etadi. “Hayrat ul-abror” asosan qomusiy pand-nasihati ruhida bo‘lsa, “Farhod va Shirin”da ishq mavzusi ustunlik qiladi. Shuningdek, ulug‘ shoirning o‘zi bu dostonni “mehnatnoma”, ya’ni “zahmatnoma” deya ham ta’riflaydi.

Navoiy besh asr muqaddam yashagani, o‘tgan davr mobaynida xalq hayotida ham, binobarin adabiy tilda ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bergani ulug‘ shoir asarlarini asliyatda o‘qib tushinishda qator murakkabliklarni yuzaga keltirdi. Bu esa Navoiy asarlarini, jumladan, dostonlarini ham osonroq tushunish maqsadida nasriy tabdil qilish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov bu xususda shunday yozadi:

“XIX asrga kelib o‘zbek adabiy tilining XV asrdagiga nisbatan qator o‘zgarishlarga uchrashi natijasida Navoiy dostonlarini o‘qib tushunish, xususan, oddiy kitobxonlar uchun ancha qiyinlashib qoldi. Shuni hisobga olib, o‘zbek adibi Umar Boqiy bu dostonni shu davr adabiy tilida nasrga aylantirdi. Navoiy asarining bu nasriy varianti toshbosmada bir necha bor nashr etildi va shoir asarini keng ommaga yetkazishda qulay vositalardan biri bo‘ldi.

Farhod chin oshiq bo‘lishi bilan birga adolat uchun, erk uchun, yurtining baxt-saodati uchun hormas kurashchi, tolmas yaratuvchi qahramon timsoli bo‘lgani, Shirin esa go‘zallik, sevgi va sadoqat ramzi bo‘lgani uchun Navoiyning ushbu dostoni yangidan qadr-qiyamat topdi, qayta-qayta nashr etildi, uning asosida sahna asarlari yuzaga keldi. Ammo Navoiy asarlari tilining murakkabligi, tushunishga og‘irligi bu davrda yana ham sezilarli edi. Bu vaqtda o‘zbek adabiy tili tub o‘zgarishlarga uchragani sababli bu asarning Umar Boqiy tomonidan yaratilgan nasriy varianti ham talabga javob bermay qoldi. Buning ustiga Umar Boqiy o‘z variantida Navoiy asaridan ba’zi o‘rinlarda ma’lum darajada uzoqlashib, nasriy matnni to‘la ma’noda Navoiy asari deyish ham qiyin edi.

Shuni hisobga olib atoqli shoir va adib G‘afur G‘ulom Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko‘rilayotgan yillari bu dostonning keng ommaga mo‘ljallangan nasriy bayonini tayyorlashga kirishdi. Bu nasriy bayon Navoiyning nazmiy matni bilan yonma-yon berishga mo‘ljallangan edi. G‘. G‘ulom mazkur ishni tugallagach, uni o‘sha vaqtda Navoiy yubileyini o‘tkazish Komiteti tomonidai shoir asarlarining matnlari ustidagi ishlarga maxsus jalb etilgan, o‘tmish o‘zbek adabiyotining yirik mutaxassislari – O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi A. Nasriddinov (Boqiy), S. Mutallibov, P. Shamsiyev, I. Odilov, A. Azizov, H. Zarifov, Ulfat va boshqalar huzuriga keltiradi va ular har baytni asliyatga taqqoslab, qo‘lyozmani boshidan oxirigacha ko‘zdan o‘tkazadilar, qimmatli fikrlar bildiradilar. Qo‘lyozma muallifi esa ularning hammasini hisobga olgan holda bu dostonni nasriy bayoni bilan birgalikda birinchi da’fa 1940-yilda, so‘ng Ulug‘ Vatan urushi tugagach nashr ettiradi. Yangi avlodni ulug‘ shoir asari bilan chuqurroq tanishtirishda bu nashrlarning ahamiyati nihoyatda katta bo‘ldi”.

Binobarin, “Farhod va Shirin” dostonini nasriy tabdil qilish yuz yildan ortiq tarixga ega. Shunga qaramay mazkur doston shu paytgacha to‘la nasriy tabdil qilinmadi.

Bu dostonning nasriy bayoni keyinchalik kirill alifbosida to‘rt marotaba, 2006-yilda esa lotin yozuvida to‘ldirilgan holda qayta nashr qilingan. Holbuki, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlari 1991-yilgi nashri to‘la nasriy tabdili bilan birga nashr qilingan.

Doston nasriy tabdilining dastlabki nashrida turli sabablar bilan jami 476 bayt tabdil qilinmagan. Bunda aksariyat dahriy tusga ega sovet mafkurasi sabab bo‘lgani ehtimoldan xoli emas. G‘afur G‘ulom tabdilida dostonning Allohga hamdu sano va hazrati Payg‘ambarimizga na’tlardan, me’roj kechasi ta’rifidan iborat birinchi va beshinchi boblari, shuningdek, sulton Husayn Boyqaro va shahzoda Badiuzzamon Mirzoga bag‘ishlangan o‘ninchi va o‘n birinchi boblari tushirib qoldirilgan edi. Holbuki, bu boblar an’anaviy tarzda yozilishi barobarida, muallifning imoni-e’tiqodi mustahkamligini ko‘rsatuvchi muhim dalillar sifatida ham qadrlidir.

2006-yilda navoiyshunos olimlar Abduqodir Xayitmetov va Vahob Rahmonov to‘ldirib nashrga tayyorlagan dostonda ham barcha baytlar to‘la tabdil qilinmagan.

Dostonning dastlabki boblari to'la nasriy bayon qilingani holda turli boblar tarkibidagi jami 70 dan ortiq bayt nasriy tabdil qilinmay qolib ketgan. Qolaversa, G'afur G'ulom nasriy tabdili keyingi nashrlarda deyarli hech qanday o'zgarishsiz qoldirildi. Vaholanki, dastlabki urinishlardan biri bo'lgani sababli akademik shoirimizning tabdili ham bugungi kun talablariga javob bera olmaydi. Xususan, uning nasriy tabdilida sobiq sho'rolar davrining mafkurasi ta'siri seziladi, shuningdek, dostonning asl matniga nomuvofiqlik kuzatiladi.

Shularni hisobga olgan holda "Farhod va Shirin"ning to'la yangi nasriy tabdili amalga oshirildi [Abdulxayrov, 2021: 336].

Endilikda ham bu borada bir qator ko'zga ko'rinarli tabdillar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ammo, shuni ham aytish joizki, Navoiy besh asr muqaddam yashagani, o'tgan davr mobaynida xalq hayotida ham, binobarin adabiy tilda ham jiddiy o'zgarishlar ro'y bergani ulug' shoir asarlarini asliyatda o'qib tushunishda qator murakkabliklarni yuzaga keltirdi. Bu esa Navoiy asarlarini, jumladan, dostonlarini ham osonroq tushunish maqsadida tabdil qilish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Albatta, bu borada ulug' shoir asarlarini yanada xalqqa yaqinlantirish maqsadida ijodkorlarimiz tinimsiz say'-harakat qilishmoqda. Ayniqsa, taniqli shoir, tarjimon Abduhamid Pardayevning nazmiy tabdillarini yaratilishi fikrimizning isbotidir [Pardayev, 2022: 840].

Xulosa qilib aytganda, "Farhod va Shirin" dostonining hozirgi o'zbek yozuvidagi nashrlarining ko'payayotgani xalqimizni Navoiy dahosi bilan tanishtirish, ulug' shoir g'oya va intilishlarini targ'ib etish nuqtayi nazaridan tahsinga sazovordir. Ammo Navoiy asarlarining tabdili saviyasi haqida ancha yillardan beri davom etib kelayotgan bahs-munozaralar kelajakda shoir asarlarining qo'lyozmalar asosida qayta tabdil qilinishi va unda ilgari yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rishni navoiyshunoslik oldiga bosh vazifa qilib qo'yadi. Bu yo'nalishda tadqiqotlarni davom ettirish dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning ijodiy metodi // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1968. № 3. – B.10.
2. Shamsiyev P. Navoiy asarlari matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari: filol. fan. dokt. ... diss. – T.: O'zRFA, 1969. – B.1.
3. Alisher Navoiy: Adabiyotlar ko'rsatkichi. – T., 1991.
4. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: O'qituvchi, 1997. – B.53.
5. "Farhod va Shirin" asliyati va tabdili. –T.: O'ZSSR Davlat ilmiy-texnik adabiyotlar nashriyoti, 1940. – 858 b.
6. Ravshanov A. G'afur G'ulomning adabiyotshunoslik faoliyati // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1973, -№4. – B.28.
7. Jalilov T. "Xamsa" talqinlari. – T.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. – B.31–32.
8. Qayumov A. Akademik G'afur G'ulom. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – B. 17.
9. Abdulxayrov M. Xamsa: "Farhod va Shirin": to'liq nasriy tabdil. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – 336 b.
10. Pardayev A. "Xamsa"ning nazmiy tabdili. – T.: "Akademnashr", 2022. – 840 b.

SENGLAH SÖZLÜĞÜNÜN FERAĞİ DÜZELTMELERİ VE FERAĞİ'DEN YANLIŞ AKTARMALARI ÜZERİNE

Dr. Farhad RAHİMİ

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: farhad_rahimi2007@yahoo.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/MVLG4553

Öz. ‘Alī Şīr Nevāyī’nin eserlerini anlamak üzere dünyanın her köşesinde birçok Çağatay Türkçesi sözlüğü düzenlenmiştir. Bunlardan bir tanesi 17. Yüzyılda İran sahasında Safevi şahı Şafī bin Şafī’nin adına yazılmış Ferāğī mahlaslı Muhammed bin Ziyā’u’d-dīn Hüseynī’nin Miftāhu’l-Luğat adlı Çağatay Türkçesi-Farsça sözlüğüdür. Toplam madde sayısı 720 olan bu eser, Farhad Rahimi tarafından 2021 yılında Türkiye’de ve 2024 yılında İran’da yayımlanmıştır. 1642’de yazılan bu eserin biricik nüshası İran-Tahran Milli Kütüphanesinin 5-19055 numarasında saklanmaktadır. Bu sözlüklerden bir diğeri Mirza Mehdi Han Esterabadi tarafından H. 1172-1173’te (1758-1760) İran’da yazılmış Çağatay Türkçesi-Farsça bir sözlük olan Senglah’tır. Genellikle Osmanlı imparatorluğu, İran, Azerbaycan, Horasan, Hindistan veya Türkistan’da yazılan ve Türk dilinin gelişme tarihi için çok büyük bir değere sahip olan bu sözlükler bir sözlükçülük ekolü oluşturmuştur. Bu sözlükler, Caferoğlu’nun deyimi ile, ne yazık ki yanlışlıktan uzak kalmamışlardır. İşte bütün yazılan bu sözlüklerde olduğu gibi Senglah ve Ferāğī sözlüğünde de bu tür yanlışlıklar bulunmaktadır. Ferāğī’nin yanlışlarının bir kısmı Senglah’ta belirtilerek düzeltilmiştir. Bu çalışmada bu hususlar belirtilmiştir. Ferāğī’de doğru olduğu halde Senglah’ta yanlış sayılan maddeler bulunmaktadır. Bu çalışmanın bir diğeri amacı bu türlü yanlışları belirlemek olmuştur.

Anahtar Sözcükler: Nevāyī, Çağatay Türkçesi, Sözlük Bilimi, Çağatay Türkçesi Sözlükleri, İran, Safeviler, Miftāhu’l-Luğat, Ferāğī, 17. Yüzyıl, Afşarlar, Senglah, Mīrzā Mehdī Han Esterābādī, 18. Yüzyıl.

On the Senglah Dictionary’s Corrections of Feraghi and Incorrect Quotations from Feraghi

Abstract. Many Chagatai Turkish dictionaries have been edited in every corner of the world to understand the works of ‘Alī Şīr Nevāyī. One of these is the Chagatai Turkish-Persian dictionary of Muhammed bin Ziyā’u’d-dīn Hüseynī, with the pseudonym Ferāğī, named Miftāhu’l-Luğat written in the name of the Safavid sultan Şafī bin Şafī in the field of Iran in the 17th century. This work, with the total number of entries being 720, was published by Farhad Rahimi in Türkiye in 2021 and in Iran in 2024. The only copy of this work, written in 1642, is kept in the Iran-Tehran National Library, number 5-19055. Another one of these dictionaries is Senglah Chagatai Turkish-Persian dictionary was written by Mirza Mehdi Han Esterabadi in H. 1172-1173 (1758-1760) in Iran. These dictionaries, which were generally written in the Ottoman Empire, Iran, Azerbaijan, Khorasan, India or Turkestan and have great value for the history of the development of the Turkish language, have formed a school of lexicography. These dictionaries, in Caferoğlu's words, unfortunately are not free from errors. There are such errors in Senglah and Ferāğī

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622